

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR  
PAGES

# JOCAA

МАДАНИЈАТ ВА САЊАТ

## Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 3

MAY | 2023

КУЛТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2023

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-3>

## БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

## МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол  
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

## ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Ходжаметова Гулчира  
Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Абдувоҳидов Фахриддин  
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур  
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида  
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон  
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло  
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**INATULLAYEV Baxromjon Boqijonovich***Namangan davlat universiteti**Madaniyatshunoslik kafedراسи dotsenti*<https://doi.org/10.5281/zenodo.7976603>

## MADANIY-MA'RIFIY TADBIR SENARIYLARIDA VATANPARVARLIK TUYG'ULARINI IFODALASH MASALALARI

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ma'naviy targ'ibotning eng ko'p tarqalgan usuli madaniy-ma'rifiy tadbirlar va uning senariysini yaratishda vatanparvarlik g'oyalarini ifodalash masalalari atroflicha tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** madaniy-ma'rifiy tadbir, senariy, dramaturgiya, senarist, vatanparvarlik, milliy madaniyat, qadriyat, jamiyat, ma'naviyat, kompozitsiya, yechim.

**ИНАТУЛЛАЕВ Бахромджон Бакижонович***доцент кафедры культурологии**Наманганского государственного университета*

## ВОПРОСЫ ВЫРАЖЕНИЯ ПАТРИОТИЧЕСКИХ ЧУВСТВ В СЦЕНАРИЯХ КУЛЬТУРНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье наиболее распространенным методом духовной пропаганды являются культурно-просветительские мероприятия и подробно анализируются вопросы выражения патриотических идей при создании их сценария.

**Ключевые слова:** культурно-просветительское мероприятие, сценарий, драматургия, сценарист, патриотизм, национальная культура, ценность, общество, духовность, композиция, решение.

**INATULLAYEV Bakhromjon Bakijonovich***Associate Professor of the Department of**Cultural Studies of Namangan State University*

## ISSUES OF EXPRESSING PATRIOTIC FEELINGS IN CULTURAL EDUCATIONAL EVENTS SCENARIOS

### ANNOTATION

In this article, the most common method of spiritual propaganda is cultural-educational events and the issues of expressing patriotic ideas in creating its scenario are thoroughly analyzed.

**Key words:** cultural and educational event, script, dramaturgy, screenwriter, patriotism, national culture, value, society, spirituality, composition, solution.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, tarix tajribasidan keng foydalangan holda mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqib oldi. Bu yo'lda madaniyat va ma'naviyat doimo zaruriy ehtiyoj sifatida qaraldi. Jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Jumladan, jamiyat ma'naviyati mamlakat barqarorligi taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay va mustahkamlamay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ma'naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli kuchdir [1, B.52].

Madaniyat ma'rifatni shakllantirishning eng samarali va ta'sirli vositasi bu aholi o'rtasida o'tkaziladigan madaniy ma'rifiy tadbirlar bo'lib, ularning tashkil etish va zamon talablari arajasiga olib chiqish bugungi kuni ijod ahli oldida turgan dolzarb masaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 28 iyuldagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi qarori muhim dasturilamal bo'layotir [2].

Mazkur qarorga muvofiq Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida olimlar, ijodkor ziyolilar va yetuk mutaxassislardan iborat «Ma'rifat» targ'ibotchilar jamiyati tashkil etildi. Unga 500 ga yaqin olimlar, professorlar, dotsentlar, O'zbekiston xalq artistlari, xizmat ko'rsatgan artistlar va ijodkor ziyolilardan iborat chuqur malaka hamda tajribaga ega bo'lgan targ'ibotchilar ushbu tuzilmaga a'zo bo'lishgan. Ularning ma'naviy targ'ibot ishlari birinchi navbatda madaniy tadbirlardan iborat. Unda aholining keng qatlami katta qiziqish bilan ishtirok etmoqda. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi [3, B.4].

Bugungi dunyoning globallashuv sharoitida madaniy tadbirlardan ko'zlangan asosiy masalalardan biri bu jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ko'rsatib berishdir. Bu o'z navbatida madaniy tadbirlarga mavzuli epizodlar orqali, xususan vatanparvarlikni targ'ib etuvchi omillarga tuyingan epizodlarni senariy dasturiga kiritishni talab etadi.

Mavzuli epizodlar tadbirning jismi, tanasi hisoblanadi. Har bitta alohida chiqishlardan iborat ommaviy tadbirdagi nomer mumtoz dramadagi «ko'rinish» tushunchasiga yaqin bo'lib, ba'zi hollarda jumalar, luqmalar tarzida amalga oshiriladi.

Zero, madaniy-ma'rifiy muassasalar tadbirlari faqat tashkilotchilar tashabbusi asosiga qurilmay, balki, tomoshabinlarning aktiv ishtirok etishini ham talab etadi.

Shuning uchun tomosha davomida tomoshabinlarga murojaat qilish, jamoa bo'lib qo'shiq aytish, o'yin uyushtirish, xalq urf-odatlarini va an'alaridan (tomoshabinlarning yoshi, millati, jinsi, ahloqiy va etnik xususiyatlarini hisobga olib) foydalanish maqsadga muvofiq. Senariydagi harakat rivoji qarama-qarshi kuchlar kurashi orqali qizg'in, eng yuqori nuqtaga – kulminatsiyaga etadi-ki, shu holatdan so'ng voqealar yechimga qarab rivojlanadi. Senariyda kul'minatsiya badiiy epizod, qo'shiq, she'r, spektakldan parcha, fil'mdan lavha, voqea ishtirokchisining xotirasi yoki tantanali tarzda bayroqning olib chiqilishi, qasamyod qilinishi, mash'al yoqilishi va hokazo ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Senariyda «yechim» katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Yechim konfliktning hal etilishiga, ya'ni kechaning emotsional yakunlanishiga olib keladi. Boshqaruvchining xotima monologi, filmdan parcha, she'riy parchalar, senariyning epilogi (xulosa qismi) va yechimi shunday bo'lishi kerak. Shunday qilib, senariy syujetini harakatga keltiradigan komponentlar – ekspozitsiya, tugun voqea rivoji, kul'minatsiya va yechim tugallanmaing daraxt shohlaridan bir-biriga mutasib holda bo'y ko'rsatishi tadbirning obrazli-badiiy ta'sir quvvatini oshiradi [4, B.36].

Adabiy ijodning muhim tarkibiy qismi hisoblangan kompozitsiya – lotincha tuzish, tartibga keltirish degan tushunchadan olingan. Inson o'z ijodiy faoliyatida kompozitsiya to'g'risidagi muayyan printsiplarga amal qiladi. Masalan, gilam to'quvchi arqonlarni bir-biri bilan kesishtirib, chiroyli to'rtbukchalar hosil qilishga, gullar, hilma-xil ranglar hamohang bo'lishiga e'tibor beradi. U bu ishlarni go'zallik haqidagi tushuncha, an'analarga rioya etib bajaradi.

Kompozitsiya printsiplariga adabiy ijodda qat'iy amal qilinadi. V.G.Belinskiy asar tuzilishni inson organizmiga qiyoslagan edi. Demak, asar kompozitsiyasi mustaqil bo'laklardan birbutun organizm vujudga kelishida muhim g'oyaviy-badiiy vositalardan biridir. Adabiyot va san'atda kolpozitsiya ma'lum g'oyaviy markazga ega bo'ladi. Bu markaz san'atkorning asosiy g'oyaviy niyatidir. Yozuvchining diqqat markazi haqida «eng muhimi, qismlarni fokuzga munosib ravishda joylashtira olishdadir va ular to'g'ri joylashtirilgan ekan, barcha keraksiz ortiqcha narsalar o'z-o'zidan tushib qoladi va katta muvaffaqiyatga erishiladi». Yozuvchi asarning ma'lum maqsadda yozilishini ta'kidlab, maqsad «san'atkor diqqat markazining belgilanishidir. Har bir rassom asarida markaz bo'lishi lozim. Rassom asarining markazi uning g'oyasi, mafkurasidir» degan edi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, asarning birbutunligini ta'minlovchi yozuvchi diqqat markazi - g'oyaviy niyati, har bir asarning janr xususiyatlariga muvofiq tarzda turlicha ifodalanadi. Lekin, har qanday asarda yozuvchi maqsadi bilan asar g'oyasini bir-biridan kekin farqlash lozim. Asar g'oyasi asosida yozuvchi maqsadi yotadi. Asar g'oyasi bilan yozuvchi maqsadi bir-biriga mos kelgandagina, g'oya asarning barcha qismlarini yagona markazga bo'ysundirgandagina badiiy mukammal asarlar yaratiladi. Hullas, bellestrik asarlarda asosiy g'oyaviy yo'nalish ko'pincha bosh qahramon personajlar tismolida ifodalansa, publitsistik asarlarda jumladan madaniy-ma'rifiy muassasalardagi badiiy-publitsistik tadbirlar senariylarida u muallif «men»i yoki personajlarning ayrim ruhiy belgilari, ko'p hollarda esa publitsistik xarakteristikada orqali zuhur etiladi [5, B.54].

Kompozitsiya tematik kechalar, teatrlashtirilgan kontsertlar, sahnaviy kompozitsiyalar, ommaviy bayramlar sayillari va boshqa tadbirlar senariylarida yorqin namoyon bo'ladi. Senariy kompozitsiya oldiga qo'yiladigan asosiy talab tadbir mazmunini mantiqiy, ishonarli, ta'sirchan va harakatda ochib berishdan iboratdir. San'at vositalari yordamida vujudga keladigan madaniy-ommaviy tadbirlarning muhim shakllaridan biri-bu badiiy kompozitsiyalardir. Badiiy kompozitsiyalarning shakllanishi oldingi davrlardan rivoj topib keldi. O'zbekistonda radio va televidenie rivojlana boshlagan paytda ularning dasturlarida adabiy badiiy eshittirishlar keng o'rin ola boshladi. Bu hodisa madaniy-ma'rifiy muassasalar ommaviy ish shakllariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Oqibatda madaniy-ma'rifiy muassasalarda adabiy musiqali va adabiy-badiiy kompozitsiyalar vujudga keldi.

«Tadbirning bunday tuzilishi, badiiy, ayniqsa dramatik asarlarga o'xshab ketadi. Bu erda ham, u erda ham qahramonlar va ayrim harakatlar mavjud. Voqealarning o'zaro bog'liq zanjiri nimadandir boshlanadi, kuchayadi, eng yuqori nuqtasiga etadi va tugaydi. Ana shuning uchun bunday tadbirlarning kompozitsiyalarida yechim, harakatning kuchayishi, kul'minatsiya kabi syujet elementlari bo'ladi. Ba'zan esa prolog va epiloglar ham uchraydi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar senaristlari ko'pincha ma'lum bir kishining yoki ishlab chiqarish kollektivining hayoti haqida, aholi jamoasining tarixi haqida hikoya qiluvchi tadbirlarni asosan syujetli qilib tuzishga harakat qiladi. Bunday paytlarda hayotning o'zi yaratgan syujetini tayyor holatda olamiz. Biroq tuzilishini va asosiy qahramonlarini muallifning fantaziyasi ham yaratishi mumkin. Xor jamoalarning chiqishlarini tayyorlovchilar ko'pincha shunday qilishadi. Birinchi navbatda tadbirning kompozitsiyasi asosi aniqlanadi. Umumiy g'oyaga asoslanib qilingan epizodlar senariyni yozishdi o'ylangan kompozitsion strukturadan biroz chetga chiqish ham mumkin. Chunki senariy yozish – ijodiy jarayon.

Har qaynday madaniy-ma'rifiy muassasalar kechasi dramaturgiya qonun-qoidalariga rioya qiladi. Kompozitsiya aniqligi - kechanning tuzilish elementlari, so'z va sahna harakati muvofiqligi, kechanning hamma epizodi senariyda aks etishi, ular muayyan maqsadga xizmat qilishi - asosiy masaladir. U tadbirning maqsadini, g'oyasini ochibgina qolmay, balki emotsional obrazli ta'sir qilishning barcha usullarini, tomoshabin kayfiyatini o'z ichiga oladi. Har bir senariy kompozitsiyasida tomoshabin diqqatini jamlashga, ularni voqeaning ichiga olib kirishga o'ziga xos tarzda erishiladi. Har bir senariyda harakatning taraqqiyot mantiqi obrazli qurilish mantiqi, kompozitsiya mantiqi bo'lishi kerak ekspozitsiya, voqealar rivoji, kul'minatsiya, tugun, yechim bir-biri bilan uzviy birikkan bo'lib, ular senariyning jumladan, har bir epizodning ritmliligini, qarama-qarshi kuchlar kurashining harakatini ta'minlaydi. Hullas, hamma vaqt madaniy-ma'rifiy muassasalar kechalari senariysi kompozitsion mukammal asar bo'lishi kerakligini esdan chiqarish lozim.

Har bir kecha senariysi bir necha epizodlardan tarkib topadi. Bu jihozlar bir-biriga «ko‘priklar» vositasida ulanadi. Har bir tadbir senariysi va umuman sahna asarlarida «ko‘prikchalar albatta zarur. Masalan: «Men bobodehqon farzandiman» degan kechada dehqon mehnati haqidagi qo‘shiqlar ana shu «ko‘prikcha»lar rolini bajarishi mumkin. Ba’zi epizodlarning o‘zaro aloqasi shu qadar aniq bo‘ladiki, unga hech qachon maxsus yordamchi bog‘lovchining zaruriyati bo‘lmaydi. Masalan: boshqaruvchi Muhammad Yusufning «Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston» she‘rini o‘qiydi, so‘ngra sahnaga yoshlar chiqishadi va ularni tantanali ravishda mukofotlash va rag‘batlantirish boshlanadi. Ba‘zan epizodlar o‘rtasida bunday o‘zaro aloqa bo‘lmasligi ham mumkin. Adabiy senariyda epizod qandaydir voqea yoki o‘zaro bog‘langan voqealar tizmasidir. epizod boshlanish, davomiylilik, kul‘minatsiya va yechimga ega. epizod o‘zidan oldingi epizodlardagi voqeani rivojlantiradi. Bundan tashqari, epizod mustaqil ma‘naviy «yuk» tashiydi, manfaatlar va xarakterlar, qarashlar va intilishlar, qarama-qarshi kuchlar to‘qnashuvidan iborat senariyning asosiy konflikti ham unda namoyon bo‘ladi.

Madaniy ma‘rifiy tadbirlarda milliy istiqloq va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish katta ahamiyat kasb etib, buning uchun mazkur tadbir senariysida maxsus elementlarni qo‘llash zarurati tug‘iladi.

Dastlab vatanparvarlik g‘oyalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, vatanparvarlik hissi milliy g‘oyamizning hamda kuchli fuqorolik jamiyati maqsadlaridan biri etib belgilanganligi bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, “Tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishq jo‘sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Biz shunday ma‘naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan fahrlanish hissi ko‘zimizni, qalbimizni yashnatib tursin” [1, B.90].

Ma‘lumki, g‘oya va mafkuralar muayyan xalq va jamiyat hayotigi o‘ziga xos va mos o‘rni hamda ahamiyati bilan farqlanadi. Bu farq uning xalqparvarlik, milliylik, bunyodkorlik kabi xususiyatlari bilan farqlanadi. O‘zbekistonning milliy g‘oyasi xalqaro huquq qoidalariga, umuminsoniy qadriyatlarga, davlatimiz Konstitutsiyasiga, o‘zimizning milliy qadriyatlarimiz, urf – odatlarimizga, vijdon erkinligi, insonparvarlik hamda fikrlar rang – rangbarangligi kabi demokratik tamoyillarga mos keladi [7, B.5].

“Milliy istiqloq g‘oyasining asosiy tamoyillari deb–uning shakllanish xususiyatlari va amal qilish usullarini imkoniyatlari va yo‘llarini belgilab beradigan yo‘nalishlarga aytiladi” [8, B.75]. Bunday yo‘nalishlar ko‘p va har biri keng qamrovlidir. Milliy g‘oya bosh tamoyillari o‘zaro uzviy aloqador bo‘lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, qonun ustuvorligi kabi talablarni nazarda tutadi.

Madaniy ma‘rifiy tadbirlar senariysida vatanparvarlik g‘oyalarini tasvirlashda quyidagilarga amal qilish lozim bo‘ladi:

- Madaniy ma‘rifiy tadbirlarda ajdodlar timsoli, ular qoldirgan boy madaniy merosini tasvirlovchi effektlardan foydalanish;
- Sahna pardozida respublikamizning diqqatga sazovor joylarini tasvirlash;
- Vatan madhi, milliy ma‘naviyatimiz, madaniyatimizni o‘zida aks ettiruvchi musiqalardan foydalanish;

- Madaniy ma‘rifiy tadbirlarda tarixiy voqealarni mavzuga mutanosib ravishva aks ettirish;
- Madaniy ma‘rifiy tadbirlarda voqealar rivojida jamiyat hayotidagi islohotlarni aks ettirish;

Senariy muallifi epizodlarni imkon qadar ko‘rgazmali, obrazli ifodalashga intilishi asnosida, har bir harakat va so‘z vositasida mamlakat hayotidagi ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettirishni yakuniy maqsad qilib qo‘yishi lozim. Chunki madaniy ma‘rifiy tadbirlar senariysining asosiy funksiyalaridan biri targ‘ibot tashviqot ekanligini unutmaslik kerak.

Shu bilan birga senariyda tarixiy qahramon obrazini badiiy vositalar bilan bezash ham uning muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. epizodda tomoshaviylikdan tashqari dinamika ham bo‘lishi kerak. Og‘zaki chiqishlarda ham harakat ilgarilab borishini ta‘minlash undagi har bir lavha qiziqarli bo‘lishiga tomoshabin diqqatini charchamaslikka erishish lozim [9, B.45].

Dunyoni ko‘ra bilish, juz‘iy faktlardan umumiy – umumiylardan esa juz‘iy xulosalar chiqarish, qiyoslash, chog‘ishtirish, ramziylik va boshqa shartli usullardan samarali foydalanish darajasi madaniy- ma‘rifiy tadbirlar senariysi muallifining mahorati, o‘zbek xalqi madaniyati, tarixini qay darajada egallaganligi bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Ming yillar mobaynida tajribadan o‘tgan badiiy adabiyotning nazariy va amaliy qonun-qoidalarini madaniy-hordiqiy muassasalar senariysi mualliflari uchun ajoyib dasturdir. Insonni go‘zallik sari yetaklaydigan badiiy adabiyot janrlarining spetsifik xususiyatlarini, epik, lirik va dramatikasarlarning shartlilik printsplarini har bir senarist bilishi shart. Qadimiy yunon madaniyatidan boshlanib, hozirgacha san‘atning gultoji hisoblanib kelinayotgan noyob teatr san‘ati qonun-qoidalarini madaniy-hordiqiy muassasalar tadbirlari senariysi uchun ham asosdir, teatrlashtirilgan ommaviy bayram tomoshalari, tematik kechalar senariysi bevosita teatr qonun-qoidalarini asosida yoziladi. Teatr va spektakllarning sahnaviy birliklarini yaxshi o‘zlashtirgan sahna va tomoshabin uyg‘unligini nazardan qochirmagan stsensarist, rejissyorgina madaniy-ma‘rifiy muassasalar tadbirlarini muvaffaqiyatli tashkil etishi mumkin.

Hayot voqealari bilan kishilar o‘rtasida jonli muloqot uyushtiradigan muhim vosita – matbuotdir. Matbuot yuzidagi satrlarni davr chiziqlari deyish mumkin. Bugungi dolzarb masalalar, qaynoq voqealar, qahramonlar matbuot ko‘zgasida jonlanib turadi. Zotan madaniy-hordiqiy muassasalar senariysi mualliflari uchun hujjatli, ilmiy-ommabot matbuot ishlari, ya‘ni nashrlari tugatmas manbaa bo‘lib xizmat qiladi. Jurnalistik ijodning muhim printsiplari – voqealarni, faktlarni muallif nuqtai nazaridan baholay olish, ularni ommaviy va xalqchil yo‘nalishda aks ettirish, operativlik va aktuallik madaniy-hordiqiy muassasalar dramaturgiyasida ham muhim o‘rin tutadi. Undan tashqari har bir faktni ta‘sirchan talqin etish, voqea-hodisalar zamiridagi masalani publitsistik tadqiq etish, davr taqozo etayotgan muammolarga munosabat bildirish, senariy asosida o‘tkaziladigan madaniy-hordiqiy muassasalar tadbirlari uchun g‘oyat kerakli bo‘lgan xususiyatdir.

Xullas madaniy-ma‘rifiy muassasalar senariysi mualliflari publitsistik ijod qirralaridan xabardor bo‘lishlari kerak. Tasviriy san‘at sirlari va usullaridan xabardor bo‘lish madaniy-hordiqiy muassasalar dramaturgiyasi ijodkorlariga qo‘l keladi. Tasviriy san‘at namunalari, jumladan ko‘rgazmali vositalar sahna maydonini tanlashda, undan foydalanishda, epizodlar almashinuvida, sahnaviy harakatlarni uyushtirishda, ommaviy tomoshalarni o‘tkazishda, maydon va ko‘chalarning tabiiy sharoiti va tadbir voqeasini uyg‘unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tasviriy san‘atning beqiyos roli voqealar mohiyatini ochishda so‘z xatti-harakatlar mazmunini anglashda kiyim-kechaklar, dekorativ bezaklar tanlashda ham ko‘rinadi.

Xulosa qilinsa, madaniy-ma‘rifiy muassasalar senariysi muallifi musiqali dramaturgiya qonun-qoidalaridan xabardor bo‘lishi lozim. Ma‘lumki musiqa har bir tadbirda, harakat jarayonida ritm, sur‘at, tomoshabinlarda kerakli kayfiyat hosil qiladi, tomoshabinlar diqqatini muhim vaqtlarga jalb etadi.

**ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat. 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi qarori// Xalq so'zi 2017 yil 29 iyul.
3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга курамиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002.
5. Alimova Sh. Madaniy-marifiy faoliyat asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2007.
6. Umarov A. va boshqalar. Mafkura va yoshlar. Metodik qo'llanma. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasining bosmaxonasi. 2003.
7. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Toshkent: O'zbekiston, 2001.
8. Qoraboyev U. Badiiy ommaviy tadbirlar.–Toshkent: O'qituvchi, 1996 .
9. Abduazizova N. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari.-Toshkent: Akademiya, 2003.

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОН

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)